

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova**

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini pedagogik kompetentligini rivojlantirish ..... 6

**M.A.Shaxodjayev, J.G'.Obidov**

Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda mustaqil ta'lim orqali o'quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida modellashtirish texnologiyalari ..... 10

**Sh.M.Ibragimov**

Hemis tizimida masofali ta'lim sharoitida onlayn nazoratni tashkil etish ..... 14

**A.U.G'ofurov**

Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari ..... 19

**B.Sh.Mo'llayev**

Shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari ..... 26

**A.B.Uralov**

Affiksoidlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq nomutanosibliklar ..... 32

**R.A.Hamroqulov**

Sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda yangi texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi ..... 37

**M.M.Yuldashev**

Sog'lom turmush tarzini joriy etish va jismoniy madaniyat mutaxassislarini valelogik madaniyatini rivojlantirish ..... 41

**Sh.D.Ismoilov**

Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishning nazariy metodologik asoslari ..... 45

**B.B.Djalalov**

Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli ..... 48

**K.I.Marayimova**

Bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi faoliyatiga tayyorlash bo'yicha xorijiy tajribalar ..... 54

**A.A.Abdusattorov**

Musiqa fani o'qituvchisining kasbiy tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari ..... 59

**J.E.Tursunov**

Texnologiya darslarida o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish ..... 63

## FALSAFA

**A.A.Qambarov**

O'zbek falsafasi shakllanishida markaziy osiyo mutafakkirlarining o'rni va ro'li ..... 68

**I.A.Asatulloev**

Zamonaviy g'arb falsafasida qalb konsepsiysi ..... 75

**H.M.Rasulov**

Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida ..... 80

**M.D.Pardayeva**

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida alisher navoiy tasavvufi qarashlarining o'rni ..... 84

**S.Q.Qakhorova**

Amir xusrav dehlaviy falsafiy-nazariy ta'limoti ..... 89

**D.O.G'afurov**

Tasavvuf ta'limotida tolerantlik masalasi va uning oila farovonligini ta'minlashdagi o'rni ..... 92

**G.A.Karimova**

Oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta'siri ..... 96

**M.Sh.Qoraboyeva**

O'rta asrlar islom olamida gnoseologik faoliyatning teologik asoslariga doir qarashlar ..... 104

## OILADA BOLALARINI MILLIY QADRIYATLAR VA AN'ANALAR ASOSIDA O'ZARO MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

### НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ И ТРАДИЦИИ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ НА ОСНОВЕ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕТОДОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ОТНОШЕНИЙ ОСНОВЫ

### NATIONAL VALUES AND TRADITIONS OF CHILDREN IN THE FAMILY BASED ON THEORETICAL METHODOLOGY OF THE FORMATION OF RELATIONSHIPS BASICS

<sup>1</sup>Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, jismoniy madaniyat nazariysi va uslubiyoti kafedrasи p.f.b.f.d.(PhD)

#### *Annotatsiya*

*Ushbu maqolada oilada bolalarni milliy qadriyatlар va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirish, milliy qadriyatlаримизни yanada rivojlantirishning ma'naviy-ma'rifiy ishlарimizdagi ahamiyati, oila va qadriyatlarning abadiy bir-biri bilan chambarchas bog'langanligi bolalarga oiladagi munosabatining ijobji darajasi to'grisida yozilgan.*

#### *Аннотация*

*В данной статье рассматривается формирование взаимоотношений между детьми в семье на основе национальных ценностей и традиций, важность дальнейшего развития наших национальных ценностей в нашей духовно-просветительской работе, то, что семья и ценности навсегда тесно связаны друг с другом, а так же о положительном уровне отношения семьи к детям.*

#### *Abstract*

*In this article, the formation of mutual relations between children in the family based on national values and traditions, the importance of further development of our national values in our spiritual and educational work, the fact that the family and values are forever closely connected with each other, the positive level of the family's attitude towards children is written.*

**Kalit so'zlar:** milliy, an'analar, qadriyat, urf-odat, fazilatli, mакtab, mahalla, kollobarativlik, ma'naviy-ma'rifiy, oila, jamiyat, aka-uka, ora-singil, qarindoshlar, do'stlar, bolalar.

**Ключевые слова:** национальный, традиция, ценность, традиция, добродетельный, школа, соседство, коллективный, духовно-воспитательный, семья, община, братья, сестры, родственники, друзья, дети.

**Key words:** national, tradition, value, tradition, virtuous, school, neighborhood, collaborative, spiritual-educational, family, community, brothers, sisters, relatives, friends.

## KIRISH

Mamlakatimizdagi har bir oilaning huquq va manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ta'limgardarliq masalalari davlat taraqiyotining asosiyo yo'nalishlariga aylanganini takidlamoqchimiz. Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning "Eng katta baxt, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi" degan fikrlari har bir vaqt va makon uchun dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi.

Oila – bu muhabbat va hurmatda yaratilgan insonlar va qonunlarga ega bo'lgan kichik davlat. Har bir mustahkam va birlashgan oilada o'zlarining oilaviy qadriyatlari mavjud bo'lib, bu jamiyatning tuzilishiga, butunligini saqlashga yordam beradi. Oila va oilaviy qadriyatlар har bir inson hayotining asosi hisoblanadi. Aynan oilada shaxsiy rivojlanish boshsanadi, chunki qadriyatlар yaxlit tabiatning uyg'un rivojlanishi uchun zarur ko'nikmalarni singdira boshlaydi. Oila va qadriyatlар abadiy bir-biri bilan chambarchas bog'langan va alohida mavjud emas. Agar oila yo'q bo'lsa, unda oilaviy yo'nalish bexosdan o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Oilada bolalarni milliy qadriyatlар va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirish va o'zaro munosabatga tayyorlash imkoniyatlarini keltirgan holda tadqiqot mavzusining dolzarbligini quyidagicha tafsiflaymiz: – Oilada bolalarni milliy qadriyatlар, fazilatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishda ularning individual, pedagogik-psixologik va xususiyatlarining ijobji tomonlari hozirgi kunga kelib inobatga olinmayotgani;

– Oilada bolalarni milliy qadriyatlар va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini maqsadli shakllantirishda zamonaviy tendensiyalari tizimlashtirilmagani; – Oilada bolalarni milliy qadriyatlар va an'analar asosida o'zaro munosabatlari jarayonida optimal sharoitlar yuzaga keltirmayotgani; – Oilada bolalarni milliy qadriyatlар va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishga

yo'naltirilgan samarali metod, shakl hamda vositalar, strategiya va texnologiyalar aniqlanib, amaliyatga joriy etilmagani; Ushbu muammolarni bartaraf etish dolzarb masala. Chunki oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini faolligi uchun sharoit yaratish; ota-onalarning qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish; xulq-atvori milliy rivojlantirish va boshqa faoliyat turlarining doimiy aloqadorligi uchun sharoit yaratish; bolalarni ma'naviy tarbiyalash, atrof-olam bilan tanishtirish, emotsiyonal olamini boyitish, ijodga e'tibor va qiziqish uyg'otish; kommunikativ munosabatlarni rivojlantirish, o'zgalarini tinglay olish va o'zaro fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda ishlash malakalarini shakllantirish; xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'lish hamda ularni qadrlashga o'rgatish; bolalarni teatr-kino madaniyatiga oshno qilish kabi ko'nikma va malakalarini amaliyatga tatbiq etish yo'llarini o'zlashtirishlari ularning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini muvaffaqiyatli olib borishlari uchun muhim sanaladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Respublikamizda hozirgi kunda oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishning nazariy metodologik masalalarini A.Munavvarov, O.Musurmonova, I.Yuldashev, N.Egamberdiyeva U.Mahkamov, Sh.Atadjanova, O'.Asqarova, E.Markaryan D.Madjidova, Y.Shaamirova, N.Maxmudova, kabi olimlarning hissasi kattadir.

Oilaviy tarbiya an'analarining o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga otaonalarning ota-onalik, qon-qarindoshlik xislatlarni uzatib, yoshlarning umumiy va hissiy rivojlanishnigina ta'minlab qolmasdan, balki, shaxsnинг mavjud imkoniyatlarini va axloqiy kamolotini ham o'stiradi. Aynan oilada bola o'z otaonalarning farzandlariga bo'lgan mehr-muhabbatini, oila oldidagi burch mas'uliyatini, bola tarbiyasidagi tajribalarini o'zlashtiradi. Bunday shart-sharoit kelgusida bolalarning qanday ota yoki ona bo'lishiga zamin hozirlaydi va er yoki xotin sifatida oila oldidagi mas'uliyat hissini shakllantirib boradi. Shu sababli oilaviy tarbiya ta'sirchanligi, doimiyligi, barqarorligi, serqirraligi bilan ajralib turadi. Unda xulq-odobga doir tadbirlarni yoshlarga to'g'ri o'rgatish, maslahat berish, kattalarning tajribasi, oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onaning kasbhunari, oila a'zolarining ma'naviy-ruhiy munosabatlari katta ahamiyatga egadir. Milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning mohiyatini anglash uchun dastlab "milliy qadriyatlar" tushunchasi bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. "Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlar, xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boylikdir". Darhaqiqat, milliy qadriyatlar u yoki bu millatning o'tmishi, buguni, ertasi, ijtimoiy taraqqiyoti, millatga mansub kishilarning turmush tarzi, ular o'rtaida tashkil etilayotgan o'zaro munosabatlar uchun dahldor bo'lgan, qadr-qimmatga ega, qadri moddiy va ma'naviy omillar sanaladi. Millat aynan o'ziga xos bo'lgan milliy qadriyatlar tufayligina o'zga millat va elatlardan farqlanadi. Milliy qadriyatlarning tanazzuli – millatning millat sifatida yo'qolib borishini, mavjud bo'lmasligini ta'minlaydi. Milliy tarix, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, qatlamlar, milliy ong, milliy til, milliy valyuta, milliy hudud yaxlitligini ifodalovchi davlat ramzları, millat vakillari, millatning ravnaqi, ertangi kuni milliy qadriyatlar asosini tashkil qiladi. Shundan kelib chiqqan holda "milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar" tushunchasini izohlash mumkin. Milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar milliy turmush tarzi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan, uning ertangi istiqbolini ta'minlashga xizmat qiladigan ma'naviy-axloqiy g'oyalilar, qarashlar, munosabatlari va yondashuvlar tizimidir. "Qadriyat" juda keng tushuncha bo'lib, unda millatning o'ziga xos tomonlari, fe'l-atvori, donishmandligi, milliy g'ururi o'z aksini topadi.

Qadriyatlar o'z mohiyatiga va amal qilish doirasiga qarab bir necha guruhg'a bo'linadi:birinchidan, tabiat bilan bog'liq qadriyatlar, ya'ni insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan tabiiy boyliklar, o'simliklar, hayvonot olamini asrash, ko'paytirish, tejamlı foydalanishini targ'ib etuvchi g'oyalilar, qarashlar; ikkinchidan, iqtisodiyot sohasidagi mehnat va mehnat qurollari malakasi bilan bog'liq qadriyatlar, shuningdek, sharqona munosabatlar; uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga davlat tuzilmasi, uning huquqiy asoslari –adolat, tenglik, tinchlik, haqiqat singari omillar, davlat ramzlariga bo'lgan hurmat; to'rtinchidan, ma'naviy qadriyatlar – millatimiz tomonidan yaratilgan va bizgacha kelgan ilmiy-falsafiy, axloqiy qarashlar, diniy, tarixiy, badiiy, san'at, bilan bog'liq yodgorliklar kiradi; beshinchidan, bolalar tarbiyasida yuzaga keladigan bo'shilqlarni prognostic tahlil qilishga mo'ljallangan shaxsiy rivojlanish dasturini "bir bolaga yeti mahalla ota-onal" yondashuvni asosida ishlab chiqish; oltinchidan, oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarni shakllantirish ijtimoiy tajribaga tayangan holda takomillashtirib borish. Demak, milliy qadriyat muayyan millatning avloddan-avlodga o'tib, uzoq vaqt saqlanib kelgan axloqiy normalari, g'oya va diniy e'tiqodi, urf-odat va marosimlarini o'z ichiga

## PEDAGOGIKA

oladi. Shuningdek, bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlar shakllantirishning sifat samaradorligi pedagogik-psixologik xususiyatlari va shart-sharoitlar bilan kafolatlanadi. Oilaviy tarbiya –bu shunchaki oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas,balki o'z ichiga etika, psixologiya, pedagogika sohalaridagi bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jabhadir. Oilaviy tarbiyaning xususiyatlari har bir xalqning milliy, ethnopsixologik, hududiy, demografik jihatlaridan kelib chiqadi. Pedagoglarning oilaviy tarbiyaga bergan ta'riflari mazmunan o'xshash. Jumladan, A.Munavvarovning fikricha: "oilaviy tarbiya deganda, ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzları asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam, izchil g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi". M.Inomova esa oilaviy tarbiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Oilaviy tarbiya shunday pedagogik tushuncha bo'lib, u ota-onalarning o'z hayotiy faoliyatları, turmush tarzları, an'anaları yordamida bola shaxsiga ijtimoiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar g'oyalar va tasavvurlarni shakllantirishni nazarda tutib, bir maqsadga qaratilgan holda muntazam olib boriladigan izchil ma'naviy ta'sir o'tkazish jarayonini ifodalaydi" Shuni aytish lozimki, oiladagi tarbiya jarayoni uzluksiz va serqirra bo'lib, ayrim paytlarda biron-bir tarbiyaviy maqsadga qaratilmagan xatti harakatlar, muomala va kattalar o'rtasidagi munosabatlar ham ixtiyorsiz ravishda bola tarbiyasiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'zbek xalqi tarbiya an'analarida kattalar bolalar oldida o'z xatti-harakatlarini nazorat qilinadi. Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashda olib borilgan ilmiy izlanish natijalarini umumlashtirish hamda samaradorlik natijasini baholash orqali quyidagi xulosalar taqdim etildi:

### XULOSA

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashda ijtimoiy-maishiy komponentlarining o'zaro birligi va aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashda muhim omillardan milliy tarbiya usullaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratildi. Oilada tarbiya jarayonini individuallashtirish, qiyinchiliklarni mustaqil yengib o'tish va individual muammolarni hal etishda hamkorlikda qo'llab-quvvatlashga erishildi;

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-3907-sonli Qarori / Xalq so'zi, 2018-yil 15-avgust.
2. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. - T.: O'qituvchi, 1994. -112 b.
3. Musurmonova O. Oila ma'naviyati - milliy g'urur //O'quv qo'l - T.:O'qituvchi, 1999. - 200 b.
4. Egamberdiyeva N. va boshqalar. "Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiysi. – Toshkent: "Mahalla va oila nashriyoti", 2021 – 336 b.
5. Ismoilov, S. D. (2022). OILA VA QADRIYAT. Academic research in educational sciences, 3(1), 998-1003.
6. Dilshodovich, I. S. (2022). UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'G'IL BOLALARNI OILAGA TAYORLASHNING PSIXOLOGIK ILMYI ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA ILMYI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 775-779.
7. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSİYANING SHAKLLANTIRISHNING XUQUQIY ASOSI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA ILMYI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1210-1215.
8. Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARING FAMILISTIK KOMPETENTSİYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA ILMYI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 874-879.
9. Dilshodovich, I. S. (2022). TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARDAN FOYDALANISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 476-479.
10. Dilshodovich, I. S. (2022). OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE CONTENT AND LEPROSY. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(2), 117-123.
11. Dilshodovich, I. S. (2023). DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMATION OF FAMILIAR COMPETENCE IN ADOLESCENT BOYS. European journal of education and applied psychology, (1), 3-6
12. Ismoilov, S. D. (2022). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARDA OILAVIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING O 'ZIGA XOS МУҲИМ JIXATLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(5), 96-100.